

Detektiv matnlarda ekspressiv leksikaning tarjimasi: ingliz, rus, o‘zbek tarjimalari qiyosiy tahlili. Agatha Kristi “The Million Dollar Bond Robbery” asari misolida

Shoxidova Mashxura Kobuljonovna

Namangan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi

[Tel:905969996](mailto:mashkhurashokhidova@gmail.com). mashkhurashokhidova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Agata Kristining “The Million Dollar Bond Robbery” hikoyasidagi ekspressiv leksikaning tarjima jarayoni yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot uch tilda – inglizcha asl matn, hikoyaning ruscha varianti (“Кража в один миллион долларов”) hamda o‘zbekcha tarjimasi (“O‘g‘irlangan million dollar”) asosida olib borildi. Ekspressiv birliklarning semantik konnotatsiyasi, uslubiy yuklamasi, personajlarning emotsional holatini ifodalashdagi o‘rni, shuningdek tarjimada qo‘llangan ekvivalentsiya, kompensatsiya, stilistik transpozitsiya kabi usullar real matn parchalari asosida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: ekspressiv leksika, tarjima strategiyalari, detektiv matn, ekvivalentlik, stilistika.

Translation of Expressive Lexis in Detective Texts: A Comparative Analysis of English–Russian–Uzbek Versions (Based on Agatha Kristi’s “The Million Dollar Bond Robbery”)

Shokhidova Mashkhura Kobuljonovna

Tel: +998905969996 Email: mashkhurashokhidova@gmail.com

Annotation: This article explores the translation of expressive lexis in Agatha Kristi’s detective short story *The Million Dollar Bond Robbery*. The study is conducted through a comparative analysis of the original English text, its Russian version (Кража в один миллион долларов), and the Uzbek translation (O‘g‘irlangan million dollar). The research examines semantic connotations, emotional colouring, and stylistic functions of expressive units, highlighting how

translators employ strategies such as equivalence, compensation, modulation, and stylistic transposition to recreate expressive meaning in Russian and Uzbek. Each example is supported by authentic textual evidence, ensuring accuracy and cross-lingual reliability.

Key words: *expressive lexis, translation strategies, detective fiction, equivalence, stylistics.*

**Перевод экспрессивной лексики в детективных текстах:
сопоставительный анализ английской, русской и узбекской версий (на
материале рассказа Агаты Кристи “The Million Dollar Bond Robbery”)**

Шохидова Машхура Кобулжоновна

Тел.: +998 90 596 99 96 Email:mashkhurashokhidova@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности передачи экспрессивной лексики в детективном рассказе Агаты Кристи “The Million Dollar Bond Robbery”. Исследование проводится на основе сопоставительного анализа оригинального английского текста, его русскоязычной версии («Кража в один миллион долларов») и узбекского перевода («O‘g‘irlangan million dollar»). В работе анализируются семантические коннотации, эмоциональная окраска и стилистические функции экспрессивных единиц. Особое внимание уделяется переводческим стратегиям — эквивалентности, компенсации, модуляции и стилистической транспозиции, — применяемым для адекватной передачи экспрессивных элементов в русском и узбекском языках. Все выводы подтверждены подлинными текстовыми примерами.*

Ключевые слова: *экспрессивная лексика, переводческие стратегии, детективный текст, эквивалентность, стилистическая транспозиция.*

KIRISH.

Detektiv janr zamonaviy adabiyotning eng ommabop yoʻnalishlaridan biri boʻlib, uning oʻziga xosligi, avvalo, syujetning dinamikligi, voqealarning keskin burilishlari va personajlarning ichki holatini ifodalovchi ekspressiv til vositalarida yaqqol namoyon boʻladi. Bunday matnlarda til nafaqat voqeani yetkazish vositasi, balki oʻquvchining emotsional reaksiyasini boshqaruvchi, uni muallif yaratgan ruhiy muhitga kirishga majbur qiluvchi estetik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, ekspressiv leksika – baholovchi soʻzlar, kuchaytirgichlar, metaforik birliklar, soʻzlashuv nutqiga xos shakllar – detektiv matnning uslubiy belgisini belgilab beradigan muhim tarkibiy qismidir. Shu bois ekspressiv birliklar tarjimai tarjima nazariyasi doirasida murakkab hamda koʻp qirrali jarayon sanaladi.

Ekspressiv leksika odatda literal ekvivalenti boʻlmagan, semantik va madaniy jihatdan murakkab qatlamlarga ega boʻlgan birliklardir. Mona Beiker taʼkidlaganidek, bunday leksik elementlarning tarjimai “strict equivalence” tamoyiliga emas, balki maʼno, konnotatsiya va stilistik taʼsirni maksimal darajada yetkazishga qaratilgan “pragmatic equivalence”ga suyanadi.[1] Tarjimon muayyan ekspressiv birlikni boshqa tilda qay darajada muvaffaqiyatli uzatishi koʻpincha nafaqat lugʻaviy maʼnoga, balki shu birlikning qahramon nutqidagi funksiyasi, ruhiy vaziyati, madaniy cheklovlariga ham bogʻliq.

Agata Kristining “The Million Dollar Bond Robbery” romani detektiv janrning klassik namunasi hisoblanib, undagi har bir personaj oʻz nutq uslubi, reaksiyalari va emotsional ohangi bilan farqlanadi. Kristining badiiy mahorati aynan dialoglarda yaqqol namoyon boʻladi: qahramonlarning gapirish uslubi, undagi intensifikatorlar, kinoyalar, metaforalar yoki oʻtkir baholovchi soʻzlar personaj xarakterini ochish, oʻquvchini ruhiy taranglikka olib kirish va syujet keskinligini oshirish funksiyasini bajaradi. Shu sababli ushbu asar ekspressiv leksikaning tarjimasini oʻrganishda mukammal imkoniyat yaratadi.

Uch tilda – inglizcha asl matn, ruscha tarjima va oʻzbekcha tarjimaning qiyosiy oʻrganilishi tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy muammolarni aniq koʻrsatadi. Ayniqsa, rus va oʻzbek tillari oʻz emotsional–

stilistik tizimi jihatidan ingliz tilidan keskin farq qiladi. Ingliz tilidagi yumshoq tanbeh, kinoya yoki muloyim baholash ko‘pincha rus yoki o‘zbek tillarida kuchliroq, ba‘zan esa aksincha, neytral shaklda ifodalanadi. Shu bois mazkur uch tildagi tarjimalarni solishtirish nafaqat tarjima strategiyalarini tahlil qilishga, balki detektiv matnning stilistik tabiatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

“The Million Dollar Bond Robbery” hikoyasi “Puaro Investigates” (1924) nomli hikoyalar to‘plamiga kiradi. Ushbu hikoya misolida ekspressiv leksikaning tarjima jarayonida qanday o‘zgarishi, ba‘zan kuchayishi, ba‘zan yumshashi yoki madaniy jihatdan moslashtirilishi tarjimonning mahorati va qabul qiluvchi auditoriya kutganliklariga bog‘liq ekanligi ayniqsa yaqqol ko‘rinadi.[2] Shu ma’noda, ushbu roman ekspressiv birliklarning tarjimaviy taqdirini uch xil tizimda – ingliz, rus va o‘zbek tillarida tahlil qilish uchun idealdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Detektiv matnlarda ekspressiv leksikaning o‘rni va uni tarjima qilish jarayoni tarjimashunoslikning muhim va o‘ziga xos tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ekspressivlikning mazmuniy va uslubiy qatlamlari tarjima jarayonida o‘zining murakkab tabiati bilan ajralib turadi. Bu borada bir qator yetuk nazariyotchilar tomonidan bildirilgan qarashlar ekspressiv birliklarning funksional-semantik mohiyatini chuqurroq ochib beradi.

Avvalo, ekspressiv leksika tarjimasi masalasining ilmiy asoslari Mona Beikerning tadqiqotlarida keng o‘rganilgan. U ekspressiv birliklarni “madaniy yuklangan leksik elementlar” sifatida baholaydi va bunday birliklar tarjimasida kontekst, nutq ohangi hamda madaniy moslikni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Beikerning fikricha, ekspressiv so‘zlar tarjimasida “pragmatik ekvivalentlik” yetakchi o‘rinda turadi, chunki bu birliklar ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri semantik moslikka ega emas, balki vaziyatga mos reaksiyani yaratishga xizmat qiladi.

Ekspressivlikning stilistik belgilari haqida Komissarov tomonidan bildirilgan qarashlar ham alohida e’tiborga loyiq.[3] U ekspressiv leksikani “stilistik qiymatga ega semantik qatlam” sifatida izohlaydi va tarjimonda ushbu

qatlamni qayta yaratish mas'uliyatini ta'kidlaydi. Komissarovga ko'ra, tarjima jarayonida faqat lug'aviy mazmun emas, balki nutqdagi baholovchi ohang, kuchaytirish vositalari va personaj xarakteriga mos keluvchi stilistik rang ham uzatilishi lozim. Aynan detektiv matnlarda qahramonlarning psixologik holati, shubha, keskinlik yoki hayrat kabi emotsional holatlar ekspressiv birliklar orqali ifodalanishi tufayli Komissarov nazariyasi amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tarjima jarayonidagi ekvivalentlik masalasi, xususan ekspressiv birliklarni o'tkazishda, Naida tomonidan ishlab chiqilgan "dinamik ekvivalentlik" tamoyillari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Naida "formal ekvivalentlik"dan farqli ravishda matnning o'quvchi ongida uyg'otadigan ta'sirini birinchi o'ringa qo'yadi va badiiy hamda ekspressiv leksikani tarjima qilishda aynan shu yondashuvni ustun deb biladi. [4]Uning fikricha, bunday birliklar tarjimasida shaklning emas, balki "effektning tengligi" asosiy kriteriy bo'lishi kerak. Bu yondashuv detektiv matnlarda, jumladan Agata Kristi romanlarida, o'quvchida hayrat, shubha yoki emotsional zo'riqish yaratadigan birliklar tarjimasida ayniqsa muhimdir.

Ekspressivlikning diskursiv va kommunikativ funksiyalarini o'rgangan Hatim va Mason ham ushbu masalaga o'z ilmiy hissasini qo'shgan. Ularning fikricha, ekspressiv birliklar nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki personajlararo munosabatni belgilovchi, matnning pragmatik yo'nalishini mustahkamlovchi signal sifatida ham xizmat qiladi. Shuning uchun tarjimon ekspressiv birlikning qaysi maqsadda qo'llanganini anglamasdan turib to'g'ri ekvivalent tanlay olmaydi. [5] Ayniqsa, detektiv janrda gumonlanuvchi va tergovchi o'rtasidagi keskinlik, xavotir, zo'riqish kabi holatlar aynan ekspressiv nutq elementlari orqali yuzaga chiqadi.

Ekspressiv leksikaning madaniy qatlamlari ham tarjimada muhim rol o'ynaydi. Chunki baholovchi birliklar, so'zlashuv leksikasi, undovlar yoki kuchaytirgichlar har bir tilda turlicha emotsional kuchga ega bo'lishi mumkin. Bu holatni Vinay va Darbelnetning transpozitsiya va modulyatsiya haqidagi qarashlari bilan izohlash mumkin.[6] Ularning fikriga ko'ra, ayrim ekspressiv so'zlar boshqa

tilda grammatik yoki stilistik jihatdan o'zgartirilgan holda berilishi kerak, chunki literal tarjima matnning emotsional mazmunini to'liq uzata olmaydi.

Shu tarzda, tarjima nazariyasiga oid manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, detektiv matnlarda ekspressiv leksikani tarjima qilish oddiy semantik jarayon emas, balki o'z ichiga madaniy, stilistik, psixologik va pragmatik komponentlarni qamrab oluvchi murakkab lingvistik faoliyatdir. Mazkur nazariy manbalar Agata Kristining "The Million Dollar Bond Robbery" hikoyasidagi ekspressiv birliklarning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi talqinini chuqurroq anglash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada detektiv matnlarda ekspressiv leksikaning qo'llanishi va uning ingliz, rus hamda o'zbek tillariga tarjima jarayonidagi muqobilligi lingvistik va tarjimashunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilindi. Ekspressiv birliklarning semantik, emotsional va stilistik qatlamlari turli tillarda turlicha ifodalanishi sababli, tadqiqotda asosan ekspressiv so'zlarning badiiy matndagi funksional-uslubiy vazifasi va tarjima strategiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga e'tibor qaratildi. Tarjima jarayonida ushbu birliklarni o'quvchida asl matn bilan bir xil ta'sir uyg'otadigan shaklda qayta yaratish masalalari tadqiqotning asosiy maqsadi bo'ldi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan nazariy asoslar Mona Beikerning pragmatik ekvivalentlik modeli, Komissarovning stilistik ekvivalentlik haqidagi qarashlari, Naida va Taber tomonidan ishlab chiqilgan dinamik ekvivalentlik tamoyili hamda Hatim va Masonning diskursga asoslangan tarjima tahlili bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu yondashuvlar ekspressiv leksikaning faqat semantik emas, balki madaniy va emotsional yuklanganlik xususiyatini ham chuqur yoritishga imkon berdi.

Har bir nazariyaning amaliyotda o'z aksini topganligi sababli, tadqiqot jarayonida ekspressiv leksikaning detektiv matndagi qo'llanilishi bevosita badiiy misollar asosida o'rganildi. Tahlillar Agata Kristining ingliz tilidagi asl "The Million Dollar Bond Robbery" hikoyasi hamda uning L. Volodarskaya tomonidan amalga oshirilgan ruscha tarjimasi, tarjimonlar Q.Mirmuhamedov, I.Ahmedov,

R.Jabbarovlar tomonidan chop etilgan o'zbekcha tarjimasi asosida olib borildi. Har uch tildagi variantlarda ekspressiv so'zlarning baholovchi, kuchaytiruvchi, emotsional yoki madaniy tus beruvchi vazifalari qiyosiy aspektda ko'rib chiqildi.

Tanlangan asarda dialoglarning markaziy o'rin tutishi, qahramonlarning psixologik holatlari aynan ekspressiv so'zlar orqali ifodalanishi va syujet dinamikasiga ta'sir qilishi sababli, metodologiyada qiyosiy-pragmatik tahlil, kontekstual tahlil, komponent tahlili hamda tarjima transformatsiyalarini aniqlash usullari qo'llanildi. Shuningdek, har bir ekspressiv birlikning tarjimadagi muqobil variantlari baholanib, tarjimon tomonidan qo'llangan kompensatsiya, transpozitsiya, modulyatsiya va madaniy moslashtirish kabi strategiyalar alohida tasniflandi. Natijada, tadqiqot metodologiyasi ekspressiv leksikaning detektiv matnning badiiy mazmunini shakllantirishdagi ahamiyatini, shuningdek tarjimada emotsional va stilistik ekvivalentlikka erishishning murakkabligini nazariy va amaliy tahlillar orqali ko'rsatishga xizmat qildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Detektiv matnlarda ekspressiv leksika syujet dinamizmini kuchaytiruvchi, personajlarning ruhiy holatini yorqin aks ettiruvchi hamda dialoglarda emotsional taranglikni yuzaga keltiruvchi muhim lingvopoetik vositadir. Agatha Kristining "The Million Dollar Bond Robbery" hikoyasida ekspressiv birliklar aynan personajlarning hayrat, qo'rquv, g'azab va shubha kabi hissiy holatlarini ifodalashda faol qo'llangan. Ushbu bo'limda inglizcha asl matn, uning ruscha va o'zbekcha tarjimalari o'rtasida ekspressivlikning qanday uzatilgani qiyosiy tahlil qilinadi.

1. Undovli ekspressivlikning tarjimada berilishi.

Hastingning ushbu jumlasida hikoya boshida umumiy hayrat va xavotir kayfiyatini yaratadi: Inglizcha: *"What a number of bond robberies there have been lately!"*[7.13]

Ruscha: *«Божe мой! ... Сколько раз за последнее время сообщали о похищении облигаций!»*[8.1]

O'zbekcha: *«Voy bo'lmasa! Yaqinda obligatsiyalar o'g'irlanibdi degan xabarlar ko'payib ketdi!»*[9.6]

Inglizcha matnda “*What a number...*” konstruktsiyasi hayratni nisbatan sokin, muloqotga xos ohangda bildiradi. Ruscha tarjimada esa “*Боже мой!*” undovi qo‘shilib, hissiy fon ancha kuchaytirilgan. O‘zbekcha talqinda “*Voy bo‘lmasa!*” singari milliy-emotsional undov berilib, asl gapning hayrat ohangi tabiiy tarzda tiklangan. Natijada ruscha matnda emotsional intensivlik ortgan bo‘lsa, o‘zbekcha variantda muloqotga mos, madaniy jihatdan o‘zlashtirilgan ekvivalentlik saqlangan.

2. Puaro nutqidagi kinoya va baholovchi birliklarning o‘tkazilishi. Puaro nutqining tanqidiy va kinoyali ohangi hikoyaning asosiy stilistik belgilaridan biridir. Uning quyidagi jumlasiga bunga yaqqol misol bo‘ladi: “*Very curious! They waste much, much time trying to prise it open, and then—sapriski!—they find they have the key all the time.*”[7.45] Ruscha tarjimada sapriski! undovi черт возьми! bilan almashtirilib, fransuzcha yumor qo‘polroq emotsional rang bilan kuchaytirilgan: “*Очень любопытно! ... а потом... черт возьми!*”[8.15] O‘zbekcha talqinda esa “*bir qarasa...*”[9.17] tarzidagi neytral undov tanlanib, kinoyaning mazmuniiy mohiyati saqlangan: «Juda qiziq! Qanchadan-qancha vaqt sarflab sandiqni buzmoqchi bo‘lishadi-yu, so‘ng bir qarasa... kalit o‘zida!» Natijada ruscha variant ekspressivlikni sezilarli darajada oshirgan bo‘lsa, o‘zbekcha tarjima madaniy moslashuvni afzal ko‘rib, ironiyaning yumshoq, muloqotga mos shaklini yaratgan.

3. Intensifikatorlarning tarjimadagi o‘zgarishi. Ridgewayning asabiiy, o‘zini oqlovchi kayfiyati matnda kuchli intensivlik orqali berilgan. Uning quyidagi gapiga bunga misoldir: “*I swear I never left the key out of my sight for a second!*” Ruscha talqinda ushbu emotsional bosim «*Клянусь честью! ... я не расставался со своим ключом ни на секунду!*» ko‘rinishida, o‘zbekcha matnda esa «*Nomusim bilan aytaman, kalitni bir soniyaga ham ko‘zimdan qochirmadim!*» tarzida ifodalangan. Inglizcha for a second birligi minimal vaqtni urg‘ulash orqali intensivlik yaratadi. Ruscha va o‘zbekcha tarjimalar bu intensifikatorning semantik yukini to‘liq saqlagan. Ayniqsa, o‘zbekcha nomusim bilan aytaman iborasi madaniy jihatdan kuchliroq emotsional intensifikator bo‘lib, asl matndagi urg‘uni yanada kuchaytiradi.

Yuqoridagi misollar ekspressiv leksikaning tarjimada qanchalik turlicha qayta qurilishini ko'rsatadi. Undovlar, intensifikatorlar, kinoyaviy birliklar va baholovchi emotsional iboralar inglizcha matndan ruscha va o'zbekcha tarjimalarga o'tar ekan, har bir tilda o'ziga xos madaniy va stilistik transformatsiyaga uchraydi. Ruscha tarjimada emotsional dramatizatsiya sezilarli darajada kuchaygan bo'lsa, o'zbekcha variant ko'proq madaniy moslashtirish va ba'zan kompensatsiya orqali ekspressivlikni qayta tiklaydi. Inglizcha yumor (masalan, *sapristi!*) ruscha matnda qo'polroq undovga aylangan, o'zbekchada esa yumshoq neytrallashtirilgan. Ayrim o'rinlarda o'zbek tarjimoni milliy salbiy-baholovchi birliklar qo'shib, ekspressiv fonga mahalliy rang bag'ishlagan. Biroq barcha tilda Puaroning kinoyaviy uslubi izchil saqlangani tarjimada stilistik ekvivalentlikni ta'minlagan muhim omildir. Shu asosda aytish mumkinki, ekspressiv leksikaning tarjimasi doimo qayta quriladigan jarayon bo'lib, tarjimonning strategik tanlovi matnning umumiy emotsional fonini sezilarli ravishda o'zgartirishi mumkin.

XULOSALAR.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Ushbu maqola detektiv matnlarda ekspressiv leksikaning tarjimasi murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanini yana bir bor tasdiqladi. Ekspressiv birliklarning semantik konnotatsiyasi, emotsional yuklamasi va stilistik funksiyasi har bir tilning madaniy-milliy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tarjimon ushbu qatlamlarni qayta yaratishda nozik yondashuvni talab qiladi. Ingliz–rus–o'zbek matnlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, tarjimonlar mazmunni saqlash bilan birga, o'quvchiga yaqin bo'lgan milliy ifoda vositalaridan ham oqilona foydalanishi zarur. Shuningdek, ekspressiv leksikani tarjima qilishda ekvivalentlik har doim formal emas, balki funksional hamda stilistik jihatdan ta'minlanishi kerak. Hikoyadagi undovlar, kinoyaviy birliklar, intensifikatorlar va baholovchi emotsiyalar tarjima jarayonida turli cho'qqilarda namoyon bo'lgan bo'lsa-da, matnning umumiy estetik ruhi, detektivlik dinamikasi va Herkul Puaroning xarakteriga xos nutq stili har uch tilda

ham muvaffaqiyatli tarzda berilgan. Bu esa tarjimonning nafaqat til, balki madaniyatlararo kompetensiyasini ham namoyon etadi.

Ayni paytda, tadqiqot ekspressiv leksika tarjimasining o'zbek tarjimashunoslik amaliyotida hamon dolzarb mavzu ekanini ko'rsatadi va kelgusida detektiv janr bo'yicha kengroq korpus asosida yanada chuqurroq stilistik-tarjimashunoslik izlanishlari olib borish zarurligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бейкер М. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 2018. – 370 p.
2. Kristi, A. *The Million Dollar Bond Robbery*. — In: *Puaro Investigates*. London: William Collins, 1924. (Inglizcha asl matn)
3. Комиссаров В.Н. *Современное переводоведение: Учебное пособие*. — Москва: ЭТС, 2001. — 384 с.
4. Nida E.A. *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. — Leiden: Brill, 1964. — 331 p.
5. Хатим Б., Мейсон И. *Discourse and the Translator*. — London; New York: Longman, 1990. — 258 с.
6. Vinay J.-P., Darbelnet J. *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995. — 359 p.
7. Christie A. *Puaro Investigates: Including The Million Dollar Bond Robbery*. — London: William Collins & Sons, 1924. — 252 p.
8. **Kristi, A.** *Кража в один миллион долларов* // Пер. на рус. — Москва: Эксмо, 2013. (Ruscha tarjima)
9. Кристи А. Ўғирланган миллион доллар: детектив ҳикоялар / А. Кристи; таржимонлар Қ. Мирмуҳамедов, И. Аҳмедов, Р. Жабборов. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. — 160 б. — ISBN 978-9943-27-948-3.

